



BOJXONA AUDITI SOHASIDA ILG'OR TAKTIK VA STRATEGIK USUL HAMDA USLUBIYOTLARNI QO'LLASH NAZARIYALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18089690>

Nurmatov Ulug'bek Islombekovich

Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti katta o'qituvchisi

E-mail: bek.nur2024@mail.ru

Muhammadov Dilmurod Fazliddin o'g'li

Bojxona instituti 4-kurs kursanti,

E-mail: muhammadovdilmurod801@gmail.com

ANNOTATSIYA: Maqolada bojxona auditining nazariy asoslari, Respublikamiz bojxona sohasida bojxona auditining kirib kelishi va uning ustida amalga oshirilgan islohotlar, joriy etilgan ushbu tizimdan foydalanishning bojxona xodimlari va bojxona sohasini rivojiga hissa qo'shadigan samarali jihatlari tahliliy jadvallar asosida keltirib o'tilgan. Shuningdek, bojxona auditi uchun mo'ljallangan qisqa va uzoq muddatli tekshirish usul va uslubiylaridan foydalanish bo'yicha turli nazariyalar yoritib berilgan. Mazkur maqolada aynan shu jarayonlarning samaradorligini oshiradigan zamonaviy usullar tahlil qilinadi hamda ular bo'yicha xalqaro tajriba, normativ asos va amaliy qo'llash mexanizmlari o'rganiladi.

KALIT SO'ZLAR: bojxona auditi, kameral audit, sayyor audit, tashqi iqtisodiy faoliyat, Kioto konvensiyasi, xavflarni boshqarish, taktik usullar, strategik usullar.

ПЕРЕДОВЫЕ ТАКТИЧЕСКИЕ И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ И ТЕОРИИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОВ В ОБЛАСТИ ТАМОЖЕННОГО АУДИТА.

АННОТАЦИЯ: В статье представлены теоретические основы таможенного аудита, внедрение таможенного аудита в таможенный сектор нашей Республики и проведенные в его рамках реформы, а также эффективные аспекты использования этой внедренной системы, способствующие развитию таможенных инспекторов и таможенного сектора на основе аналитических таблиц. Кроме того, освещены различные теории использования краткосрочных и долгосрочных методов и приемов инспекции, предназначенных для таможенного аудита. В статье анализируются современные методы повышения эффективности этих процессов, изучается международный опыт, нормативно-правовая база и механизмы их практического применения.



КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: таможенный аудит, камеральный аудит, мобильный аудит, внешнеэкономическая деятельность, Киотская конвенция, управление рисками, тактические методы, стратегические методы.

ADVANCED TACTICAL AND STRATEGIC METHODS AND THEORIES OF METHOD APPLICATION IN THE FIELD OF CUSTOMS AUDIT

ABSTRACT: The article presents the theoretical foundations of customs audit, the introduction of customs audit in the customs sector of our Republic and the reforms carried out on it, the effective aspects of using this introduced system that contribute to the development of customs officers and the customs sector based on analytical tables. In addition, various theories on the use of short-term and long-term inspection methods and techniques intended for customs audit are highlighted. This article analyzes modern methods that increase the efficiency of these processes and studies international experience, regulatory framework and practical application mechanisms for them.

KEYWORDS: customs audit, cameral audit, mobile audit, foreign economic activity, Kyoto Convention, risk management, tactical methods, strategic methods.

KIRISH

Global savdo hajmining keskin kengayishi, bojxona yuk oqimlarining murakkablashuvi va bojxona to'lovlari bilan bog'liq xavflarning ortib borishi bojxona auditining rolini tubdan oshirmoqda. Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida auditorlik jarayonlari endi faqat tekshiruv amaliyoti bilan chegaralanmay, balki risklarni oldindan bashorat qilish, ma'lumotlarni intellektual qayta ishlash va tezkor strategik qarorlar qabul qilishni ham talab etadi. Shuning uchun bojxona auditida ilg'or taktik va strategik uslublardan foydalanish, jumladan, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan risk tahlili tizimlari, raqamli kuzatuv platformalari kabi texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalaga aylanmoqda. Mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasining o'sishi bojxona xizmati faoliyatini

ishonchliligiga putur yetkazmagan holda bojxona tartib-taomillariga ketadigan vaqt davomiyligini kamaytirish orqali ularning faoliyatini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shuni ta'kidlash joizki, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining aksariyati mavjud qonunchilikka rioya qiladilar, biroq amaldagi qonun hujjatlari talablari buzilishini aniqlash va ularning oldini olish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalasi doimo bojxona organlari oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelgan. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan barcha soha va tarmoqlarda olib borilayotgan oqilona siyosat va amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar bojxona tizimini ham qamrab olayotganligi quvonarlidir. Jumladan, birgina joriy yil boshidan hozirgi kunga qadar bojxona ishi faoliyatiga oid qator



normativ-huquqiy va idoraviy hujjatlar[1], Davlat dasturlari, Yo'lxaritalari, chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilganligi — bojxona sohasida bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi bilan bog'liq jarayonlarda bojxona protseduralarini (tartib-taomillar) qisqa muddatli yaqin istiqbolda yanada soddalashtirish, ularning tizim faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilishi tizim uchun eng katta zaruriyat desak mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bugungi kunda butun jahonda bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi bilan bog'liq tartib-taomillarni yanada soddalashtirish masalasi bojxona ma'murchiligining eng ustuvor vazifasiga aylanib ulgurdi[2]. Ayniqsa, hozirgi O'zbekiston sharoitida bojxona postlarida bojxona nazoratini yanada soddalashtirish, uning shart va tamoyillarini optimallashtirish ijobiy tomonga o'zgartirilmoqda. Eskicha, yuz foizli yalpi bojxona nazoratidan o'tkazishga asoslangan tekshirishlardan voz kechgan holda joriy etilgan xavfni boshqarish tizimidan foydalangan holda tanlab o'tkazish, tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona auditini qo'llash zaruriyatini taqozo etmoqda. Mazkur holatlar esa o'z navbatida bojxona auditini qanday qilib, qaysi usul va vositalarni qo'llash asosida o'tkazish bo'yicha savollarga javob topishni talab etmoqda.

Fikrimizcha, bu borada Jahon savdo tashkilotiga yoki Yevro Osiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo bo'lgan davlatlarda yohud

unga a'zo bo'lmagan, kuzatuvchi maqomidagi MDH davlatlarida bojxona auditi tushunchasining mazmun-mohiyati, uning qo'llanishi borasida amaliyotchi mutaxassis va iqtisodchi olimlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Jumladan, Rossiya Federatsiyasidan D.L.Tukeev, L.D.Salakova bojxona auditiga: "Tovarlar chiqarib yuborilganidan keyin bojxona nazoratiga oid xorijiy tajribani tahlil qilib, mazkur nazorat shakli xorijiy davlatlarda bojxona auditi shaklida, bojxona to'lovlaridan kam yoki ortiqcha to'langan summani aniqlash maqsadida bojxona ishi sohasidagi qonunbuzilish holatlarini aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan faoliyatdir", deya izoh bersa, bir guruh tadqiqotchilar A.A.Berzan, O.Ye.Kudryavsev, V.V.Solovev, I.V.Soloveva, Ye.P.Luneva, L.A.Popova, S.A.Chepurnov, "Bojxona auditi — tovarlar chiqarishga ruxsat berilgandan so'ng bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat nazoratining bir turi" ekanligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, S.N.Shostak va A.S.Shves "Bojxona auditi xususiy audit tashkilotlari tomonidan tadbirkorlik asosida amalga oshiriladigan, mustaqil faoliyat turi" deb e'tirof etadilar.

Aytish joizki, O'zbekiston Respublikasining ko'plab olimlari bojxona auditi va uni tashkil etish borasida ko'plab izlanishlar olib borilgan. Xususan, B.Q.Hamdammov, S.Aripov, J.Qodirov, Sh.Azizov, M.Karimjonova, Z.Makkamovlar ko'plab munozaralar



yuritib bojxona auditi respublika tashqi savdo tovar aylanmasini yanada faollashtirish maqsadida TIF subyektlari manfaatlarini ichki va tashqi to'siqlardan himoya qilishni kuchaytirish, ularning faoliyatini yanada erkinlashtirish, xalqaro transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish orqali eksport tovarlarini transportda tashish xarajatlarini kamaytirish, bojxona to'lovlaridan berilayotgan imtiyozlar monitoringini muntazam o'tkazilishini ta'minlash lozimligi yuzasidan fikrlar berib o'tganlar. Zero, mamlakatlararo xalqaro integratsiya, globallashtirish jarayonlari tobora kuchayib borayotgan bir vaqtda yetakchi xorijiy davlatlar tajribalari va nufuzli xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarida ko'rsatib o'tilgan ilg'or metodlarni keng joriy etish doimo muhim bo'lgan. Ushbu masalada O'zbekiston Respublikasi Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish harakatlarini izchil amalga oshirayotgan paytda, tashkilotning 2014 yildagi "Savdo tartibotlarini soddalashtirish to'g'risida"gi bitimning 7.5-moddasida hamda Kioto konvensiyasining 6.6-standartida alohida izohlab o'tilgan[4]. Shuningdek, Jahon bojxona tashkilotining 2018 yildagi "Bojxona auditi o'tkazish yuzasidan qo'llanma"sida ham Bojxona auditini qo'llash orqali bojxona organlari o'zlarining mavjud kuch va vositalarini maqsadga yo'naltirilgan holda qo'llashlari oqibatida samaradorlikka erishishi va biznes yuritish subyektlari bilan do'stona munosabatga kirishishi, qonunlarga tadbirkorlarning itoatkorligini

oshishi, savdoni rag'batlantirilishi kabi ijobiy natijalarga erishilishini ta'kidlab o'tgan.

Bojxona auditida ilg'or taktik va strategik yondashuvlarning nazariy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-noyabrda VM-700-sonli qarorining 2-ilovasida "Bojxona auditini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomda keltirilganidek, **bojxona auditi** — tovarlarni chiqarishga ruxsat berilgandan so'ng bojxona to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilganligini vakolatli shaxslar tomonidan bojxona rasmiylashtiruv jarayonida taqdim etilgan hujjatlarni moliya-xo'jalik faoliyatiga bog'liq hujjatlarda aks ettirilgan ma'lumotlar bilan solishtirgan holda o'rganish va tekshirishga asoslangan bojxona nazorati shaklidir[3].

Shuningdek, bojxona auditi o'z mohiyatiga ko'ra bojxona to'lovlarini to'g'ri hisoblash, tovarlarning kelib chiqishi, qiymati va tasniflanishi bo'yicha aniqlik kiritish, shuningdek, import-eksport operatsiyalarida yashirin risklarni aniqlashga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Bunda taktik usullar qisqa muddatli operativ nazorat choralari asoslanar ekan, strategik usullar uzoq muddatli tizimli islohotlar, ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash va avtomatlashtirishni qamrab oladi.

Bojxona auditida ilg'or uslublarning amaldagi holati va muammolari. O'zbekistonda bojxona auditini raqamlashtirish bo'yicha so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlar amalga



oshirilgan bo'lsa-da, amaliyotda bir qator tizimli muammolar hali ham mavjud:

Amaldagi holat tahlili. Risklarni avtomatik baholash tizimi mavjud bo'lsa-da, ayrim tovar guruhlar yoki importchilar bo'yicha ma'lumotlar yetarli emas.

- Auditsiz rasmiylashtirilayotgan bojxona deklaratsiyalari ulushi sezilarli bo'lib, bu tekshiruv imkoniyatlarini cheklaydi.

- Axborot tizimlari o'rtasida integratsiya yetarli darajada shakllanmagan.

Muammolar. Tovar qiymatini sun'iy pasaytirish bo'yicha yashirin sxemalarning murakkablashuvi.

- Auditorlarning raqamli savodxonlik darajasining notekisligi.

- Xalqaro tajribalardan to'liq foydalanilmasligi.

Ilg'or usullar samaradorligiga ta'sir tahlili. Intellektual tahlil tizimlaridan foydalangan davlatlarda quyidagi natijalar qayd etilgan:

- Audit samaradorligi 30–45% ga oshgan.

- Tekshiruvga sarflanadigan vaqt 2–3 baravar kamaygan.

- Yashirin bojxona huquqbuzarliklari aniqlanishi 50% dan ko'proq oshgan.

Bu natijalar bojxona auditida strategik texnologiyalarni joriy etish samaradorlikni sezilarli oshirishini ko'rsatadi.

Bojxona auditi samaradorligini oshirishda istiqboldagi strategiyalar.

Xalqaro tajriba va uning qo'llanishi. Dunyoning ilg'or bojxona tizimlari – Singapur, AQSH, Koreya, Kanada tajribasida quyidagi mexanizmlar keng qo'llaniladi:

- Big Data asosidagi keng ko'lamli risk tahlili.


- Elektron tijorat uchun maxsus audit modellarini yaratish.

- Blockchain asosida butun ta'minot zanjirini kuzatish.

- Post-audit nazoratining to'liq raqamlashtirilishi[5].



AQSH bojxona xizmatida bojxona auditi quyidagicha hisoblanadi: AQSH bojxona xizmatida bojxona auditi 2 turga (*Focused Assessment (FA)*, *Quick Response Audit (QRA)*) bo'linadi(1-rasm).



1-rasm. AQSH bojxona xizmatida bojxona auditi 2 turga taqsimlanishi.

Focused Assessment (FA) – “**Tarmoqli tekshiruv**”. Tarmoqli tekshiruv — tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini xavfni boshqarish tizimining aniq topshiriqlarida keltirilgan yo‘nalishlari va ichki nazorat tizimini tekshiradi. Bu turdagi auditga asosan import hajmi 10 mln AQSh dollaridan yuqori bo‘lgan, bojxona qiymatini

aniqlash jarayonlarida bojxona qiymatini aniqlashning murakkabligidan (*tovar bojxona chegarasini kesib o‘tayotgan paytda tovar uchun to‘langan bevosita yoki bilvosita to‘lashi kerak bo‘lgan to‘lovlarning mavjudligi*) foydalangan, taqdim etgan ma’lumotlari yuzasidan nomuvofiqlik yuzaga kelgan TIF ishtirokchilari tanlab olinadi.


Focused Assessment (FA) 3 bosqichda amalga oshiriladi(2-rasm).

1-bosqich Ma’lumotlarni

2-rasm. *Focused Assessment* bosqichlari.



to‘plash “Pre-



Assessment Survey (PAS)". TIF ishtirokchisining so‘nggi 3 yil davomidagi import tarixini tekshirish uchun 1 nafar yetakchi auditor va 2-3 nafardan iborat mutaxassislardan iborat audit guruhi shakllantiriladi. TIF ishtirokchisiga (CBP Form 28 (Request for Information)) ko‘rinishda zarur ma‘lumotlarni taqdim etish uchun xabarnoma yuboriladi va javob taqdim etish uchun 30 kungacha muddat taqdim etiladi.

2-bosqich Muvofiqlikni tekshirish “Assessment Compliance Testing (ACT)”. TIF ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlar (tovalarning tavsiflanishi, bojxona qiymati belgilanishi va boshqalar) hujjatlar asosida o‘rganiladi. TIF ishtirokchisining xodimlari bilan (buxgalteriya, qiymat bo‘yicha mutaxassis, logist va deklarant (zarur hollarda)) uchrashuvlar tashkil etadi. Bosqich yuzasidan hisobot tayyorlanadi va faoliyat 3 xil ko‘rinishda (“Samarali”, “Yaxshilash talab etiladi”, “Qoniqarsiz”) baholanadi.

3-bosqich Nazorat auditi “follow-up audit”. “Assessment Compliance Testing (ACT)” davomida “qoniqarsiz” baholangan yoki “Yaxshilash talab etiladi” deb baholanib 90 kun davomida kamchiliklarni barataraf etmagan TIF ishtirokchilari jalb etiladi va audit boshlanishidan 30 kun avval ogohlantiriladi. Audit natijalari yuzasidan ijobiy baholanishi (Trusted Trader dasturiga kirish imkoniyati) va salbiy

baholanishi (Compliance Assessment o‘tkazilishi uchun asos) mumkin.

Quick Response Audit (QRA) — “Tezkor audit” bu TIF ishtirokchilarini muayyan yo‘nalishlarda (to‘g‘ri tasniflanganligi, bojxona qiymati, preferensiyalarning to‘g‘ri qo‘llanilganligi va boshqalar) belgilangan tartib-qoidalarga qay darajada amal qilganligi tekshiriladi.



AQSh bojxona xizmatida bojxona auditi o'tkazishning o'ziga xos jihatlari shundaki, ya'ni:

- Audit hisoblanmaydigan xizmat turi Risk Analysis and Survey Assessments (RASAs) hisoblanib davlat tashkilotlari o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvi hisoblanib rasmiy audit emas. Natijalar yuzasidan hech qanday hisobot tuzilmaydi va tekshiruv natijalari yuzasidan xat tayyorlanadi. Ammo xizmat natijalari audit belgilash (follow-up audit) uchun asos hisoblanadi;

- Audit o'tkazish jarayonida yoki oldin TIF ishtirokchisi bilan joyiga chiqqan holda yoki onlayn tarzda muzokaralar o'tkazish imkoniyati mavjud;


- TIF ishtirokchilariga "oqilona ehtiyotkorlik" (reasonable care) tushunchasi orqali taqdim etilgan ma'lumotlarning haqiqiylikini ta'minlash, bojxona organlariga "umumiy

javobgarlik" (shared responsibility) bojxona qonunlari va qoidalari haqida aniq va to'liq ma'lumot berish majburiyati yuklatilgan;

- TIF ishtirokchilariga o'z-o'zini baholash imkoniyati (bojxona organlari nazorati ostida) yaratilgan bo'lib kamchiliklar aniqlangan hollarda jarima qo'llanilmaydi va audit qilish ehtimoli kamayadi[6].

Kanada bojxona xizmatida bojxona auditi tajribasida esa audit boshlanishidan kamida 30 kun avval TIF ishtirokchisi ogohlantiriladi va audit turi tanlanadi. Kanada bojxonasida bojxona auditi bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshirilgandan so'ng 4 yil davomida amalga oshiriladi. Bojxona qonunlarini qasddan buzish o'rganish muddatini 6 yilgacha uzaytirilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Kanada bojxona xizmatida bojxona auditi 3 turga (*Compliance, Trade, Verification*) bo'linadi(3-rasm).





3-rasm. Kanada bojxona xizmatida bojxona auditi 3 turga bo'linish holati.

Compliance audit — eksport (import) operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi TIF ishtirokchilarini amaldagi Kanada qonunchiligiga qay darajda rioya etganligini tekshirish;

Trade audit — eksport (import) operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi TIF ishtirokchilarini xalqaro erkin savdo shartnomalari doirasida kelib chiqish sertifikatlarini to'g'riligi va preferensiyalarni to'g'ri qo'llanilganligini tekshirish;

Verification audit — eksport (import) operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi TIF ishtirokchilarini bojxona yuk deklaratsiyalaridagi ma'lumotlarning haqqoniyligini tekshirish.

Bu turdagi audit 2 turga (**Pre-verification** (tovarlar yetib kelishidan avval) va **Post-verification** (tovarlar chiqarib yuborilgan keyingi)) bo'linadi.

Audit davomida TIF ishtirokchisiga nisbatan qo'shimcha bojxona to'lovlari hisoblash yoki jarima (qasddan sodir etilgan hollarda) qo'llaniladi.

Audit natijasiga ko'ra TIF ishtirokchisi ijobiy baholansa "past riskli" hisoblanib unga nisbatan audit o'tkazish davri uzaytiriladi yoki salbiy baholansa "yuqori riskli" deb hisoblanib audit o'tkazish davri qisqartiriladi.

Kanada bojxona xizmatida bojxona auditi o'tkazishning o'ziga xos jihatlari mavjud. Ular:

- **Trusted Importer Program (TIF)** yoki **Customs Self-Assessment (CSA)** dasturlari a'zosi bo'lsangiz audit jarayonlari sizga uzoq davr davomida

o'tkaziladi va kamchiliklar aniqlangan taqdirda ham yengil jazo choralari qo'llaniladi;

- Audit o'tkazish davomida xalqaro erkin savdo shartnomalari (**USMCA, CETA**) doirasida kelib chiqish sertifikatlarini to'g'riligi va preferensiyalarni to'g'ri qo'llanilganligini tekshirish;

- TIF ishtirokchilari bojxona qonun buzilish holatlari haqida **Voluntary Disclosure** (ixtiyoriy xabar berish) dasturi orqali bu orqali faqat aniqlangan qo'shimcha bojxona to'lovini to'lash (jarima yoki foizlarsiz) imkoniyati beriladi[7].

Meksika bojxona xizmatida bojxona auditi esa 3 turga (Revisiones de Gabinete (Kameral audit), Visitas Domiciliarias (Sayyor audit), Revisiones Electrónicas (Elektron tekshiruv)) bo'linadi.

Kameral audit — bojxona organlari tomonidan TIF ishtirokchisining joyiga chiqmagan holda amalga oshiriladi. Bunda TIF ishtirokchisiga xabarnoma yuboriladi. Xabarnomada tekshiruv maqsadi, davri va majburiyatlar bajarilganligiga qaratiladi.

Sayyor audit — bojxona organlari tomonidan TIF ishtirokchisining joyiga chiqqan holda amalga oshiriladi. Bunda TIF ishtirokchisiga buyruq yuboriladi. Buyruqda,

- tekshiruv o'tkazuvchi organ;
- tekshiruv maqsadi, davri va majburiyatlar bajarilganligi;
- auditorlarning ismlari;
- tekshiruv o'tkazish joyi va huquqiy asosi ko'rsatiladi.



Elektron audit — bojxona organlari tomonidan elektron ma'lumotlar, hujjatlar va hisobotlarga asoslanadi. Audit davomida import/eksport deklaratsiyalari va ularga bog'liq CFDI fakturalaridagi qiymatlar, tasniflar va boshqa ma'lumotlarning mos kelishini tekshiradi.

Meksika bojxona xizmatida bojxona audit o'tkazishning o'ziga xos jihatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- **“O‘zini-o‘zi tekshirish” (Self-Correction)** audit boshlanishidan oldin yoki uning davomida kompaniya o'z xatolarini mustaqil ravishda aniqlashi va tuzatishi uchun imkoniyatlar mavjud bo'lishi mumkin.

- TIF ishtirokchisiga audit natijalari yuzasidan kuzatuv xati yuborilib kamchiliklarni bartaraf etish uchun **20 kun muddat beriladi** aks holda qaror chiqariladi.

- Auditorlar faoliyati yuzasidan TIF ishtirokchisi jarayonlarni kuzatib borish uchun guvohlar jalb etilishi mumkin.

Bugungi kunda bojxona auditida ilg'or mexanizmlarni ko'rib chiqamiz:

AI Audit Assistant – auditor uchun sun'iy intellekt yordamchisini joriy etish.

Real-time risk monitoring – real vaqt rejimida tranzaksiyalarni baholovchi tizimlar.

Digital Twin Customs Model – bojxona jarayonlarining raqamli nusxasini yaratish orqali prognozli tahlil.

Bu strategik yondashuvlar bojxona audit sifatini mutanosib oshiradi va xatoliklar ehtimolini keskin kamaytiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida bojxona

auditining ish samaradorligini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar bildiriladi:

- bojxona auditini o'tkazish natijalari salbiy aniqlangan taqdirda jarima qo'llash amaliyotini qo'llash;

- vakolatli iqtisodiy operatorlarga nisbatan auditdan o'tkazish muddatini 3(uch) yilda bir marotaba bojxona auditidan o'tkazish;

- bojxona sohasiga oid konsalting firmalar (bojxona organlari ma'lumotlar bazasida mavjud ma'lumotlardan asosida haq evaziga) yoki bojxona organlari tomonidan TIF ishtirokchilarini tashabbusi evaziga profilaktik bojxona audit o'tkazib berish amaliyotini joriy etish (pullik xizmat);

- AQSH va Kanada tajribasidagi self-correction, voluntary disclosure, trusted trader kabi elementlarni joriy etish maqsadga muvofiq. Bu strategik yondashuvlar bojxona audit sifatini mutanosib ravishda oshiradi, xatoliklar ehtimolini keskin kamaytiradi va ushbu mexanizmlarni O'zbekiston bojxona tizimiga bosqichma-bosqich moslashtirish orqali audit jarayonlarini tubdan takomillashtiradi.

Xulosa. O'zbekiston bojxona audit xalqaro standartlar bilan uyg'unlashgan, huquqiy bazasi shakllangan, raqamli transformatsiya asosidagi faoliyat yuritayotgan tizimdir. Biroq ilg'or strategik va taktik yondashuvlarni yanada chuqur joriy qilish orqali auditning samaradorligini keskin oshirish, iqtisodiy xavfsizlik darajasini ko'tarish va bojxona



jarayonlarining shaffofligini mustahkamlash mumkin.

Bojxona auditi tizimini raqamlashtirish, risklarni intellektual boshqarish, strategik tahlil vositalarini keng joriy etish, shuningdek xalqaro tajribalardan tizimli foydalanish uning

samaradorligini oshirishning asosiy yoʻnalishlaridir. Ilgʻor taktik va strategik uslublarni qoʻllash nafaqat bojxona organlari uchun, balki butun iqtisodiy xavfsizlik tizimi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi, 2024-yil 27-fevral.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi “Bojxona maʼmuriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-122 sonli Farmoni.
3. Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 6-noyabrda 700-son qarori qarori.
4. Kioto konvensiyasi.
5. Internet maʼlumotlari: <https://www.cbp.gov>
6. Internet maʼlumotlari: <https://www.cbsa-asfc.gc.ca/menu-eng.html>
7. Internet maʼlumotlari: <https://anam.gob.mx>